

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
Raising birinchi o‘rinbosari M.M.Mirzayevning 2022-yil iyul
bajarilgan ishlari

Budjet daromadlari ijrosini ta‘minlash
va qo‘shimcha manbalarni jalb etish

2022-yilning iyul uchun belgilangan **12,1 trln.so‘m** prognoz ko‘rsatkichi **12,9 trln.so‘mga** (106,3%) bajarilib, byudjetga **761,2 mlrd.so‘m** qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha **2022-yil iyul** oyi uchun **2,7 trln.so‘m** belgilangan prognoz **2,9 trln.so‘mga** yoki 106 foizga bajarildi.

Strategik rejalashtirish bo‘yicha

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 28 apreldagi 249–son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Asl belgisi” Milliy axborot tizimida 6 ta dori vositalari va tibbiy buyumlarni, 5 ta suv va salqin ichimliklarni 5 ta maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazilib mahsulotlar katalogi moduliga sinov tariqasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlar (121 ta dori darmon, 34 ta suv sa salqin ichimlik, 768 ta maishiy texnika) joylashtirilishi ta‘minlandi.

Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha

2022-yilning **iyul oyida** jami 48 ta 731,9 mln. so‘mlik soliq nizosiga oid shikoyatlar kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan.

Xususan, shikoyatlar soliq to‘lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko‘rib chiqilib, 16 tasi 241,5 mln. so‘mlik murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 32 ta 167,9 mln.so‘mlik murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.